**Xalq banki**
**Boshqaruvi Raisi v.b.**
**Sh. Atabayevga**

**Xalq bankining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini o'rganish maqsadida o'tkazilgan**
**SO'ROVNOMA NATIJALARI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi **PF-270-son** Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining **2025-yil 6-avgust**dagi qo'shma qarori bilan tasdiqlangan **"Yo'l xaritasi"**da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan **Xalq banki xodimlari** va **aholi o'rtasida** anonim so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnomada Xalq bankining **4 233 nafar** xodimlari va **714 nafar** aholi vakillari ishtirok etdi. So'rovnoma natijalari **1** va **2-ilova**da.

So'rovnoma natijalari bankda xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash, bank xizmatlarini ko'rsatish va xarid jarayonlarida inson omilini kamaytirish va shaffoflikni oshirish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kengaytirish hamda bank xodimlarini sohaga oid muntazam o'qitib borish lozimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bankda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlab berishingizni so'rayman.

**Korrupsiyaga qarshi**
**kurashish xizmati rahbari** **A. Xaitov**

NAZORAT
№179

**O'zbekiston Respublikasi**
**aksiyadorlik tijorat**
**Xalq banki Boshqaruvi Raisi v.b.**

………………… **Sh. Atabayev**

*2026-yil "………"-iyun*

**Xalq bankida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha**
**CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

*Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining samaradorligini o'rganish maqsadida bank xodimlari va keng jamoatchilik o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari yuzasidan*

| T/r | Ustuvor vazifa | Bajarish muddati | Mas'ullar |
|---|---|---|---|
| 1. | Bank xizmatlarini ko'rsatishda **kamida 3 tadan jarayonni raqamlashtirish.** Eslatma: Chora-tadbir dasturi tasdiqlangan sanadan keyingi davrda amaliyotga joriy etilgan raqamlashtirilgan jarayonlar inobatga olinadi. | 01.12.26-yil | Chakana biznes departamenti, Kichik va o'rta biznes departamenti, Tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda |
| 2. | Bank xodimlarini korrupsiyaning salbiy oqibatlari to'g'risida xabardor qilish maqsadida soha vakillari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etib borish. | Har chorakda kamida bir marta | Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati |
| 3. | Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan o'quv seminarlar tashkil etish. | Har chorakda kamida bir marta | Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati, Xodimlarni boshqarish departamenti |
| 4. | Bankning korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari to'g'risida keng jamoatchilikni targ'ibot - tashviqot ishlari orqali xabardor qilib borish. | Doimiy | Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati, Kommunikatsiyalar va marketing departamenti |

| T/r | Ustuvor vazifa | Bajarish muddati | Mas'ullar |
|---|---|---|---|
| 5. | Bo'sh ish o'rinlariga ochiq manbalarda e'lon berish orqali nomzodlarni tanlash hamda tanlov asosida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali real vaqt rejimida kuzatish imkonini berish tizimini joriy etish. | Doimiy | Xodimlarni boshqarish departamenti |
| 6. | Bankda bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni dastlabki saralashdan o'tkazish jarayonida kollegial qaror qabul qilish. | Doimiy | Xodimlarni boshqarish departamenti |

# Xalq banki xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anonim so'rovnoma natijalari bo'yicha MA'LUMOT

| № | So'rovnoma savollari | Javob varianlari va javoblar | So'rovnoma javoblari soni va jamiga nisbatan ulushi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Siz ishlaydigan tarkibiy bo'linmada xodimni quyi lavozimjdan yuqori lavozimga o'tkazish bo'yicha qarorlar xolisona, xodimning salohiyati (ish tajribasi, ko'nikmasi, bilimi)dan kelib chiqib qabul qilinadimi? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q (Tanish-bilishchilik, rahbar yoki vakolatli shaxslarni moddiy (manaviy) rag'batlantirish hisobiga) | | |
| | | *Javoblar* | 3 866 nafar (91,3%) | 367 nafar (8,7%) | | |
| 2 | Siz ishlaydigan tarkibiy bo'linmada muammolar shaxsiy aloqalar va (yoki) tanishlar orqali hal qilinadimi? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q | | |
| | | *Javoblar* | 248 nafar (5,9%) | 3 985 nafar (94,1%) | | |
| 3 | Siz ishlaydigan tarkibiy bo'linma rahbariyati shaxsiy namunasi bilan korrupsiyaga nisbatan murosasizligini namoyish etadimi? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q | | |
| | | *Javoblar* | 2 140 nafar (50,6%) | 2 093 nafar (49,4%) | | |
| 4 | Sizga shaxsan yoki vositachilar orqali bankning belgilangan tartiblarini buzishingiz (masalan, tezlashtirish, tasdiqlash yoki qoidabuzarliklarni yashirish) evaziga pul, sovg'a yoki xizmat taklif qilinganmi? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q | | |
| | | *Javoblar* | 92 nafar (2,2%) | 4 141 nafar (97,8%) | | |
| 5 | Siz boshqa xodimlarga bankning belgilangan tartiblarini buzganligi (masalan, tezlashtirish, tasdiqlash yoki qoidabuzarliklarni yashirish) evaziga pul, sovg'a yoki xizmat taklif qilinganiga guvoh bo'lganmisiz? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q | | |
| | | *Javoblar* | 87 nafar (2,1%) | 4 146 nafar (97,9%) | | |
| 6 | Sizga rahbariyat tomonidan ma'lum bir mijoz, kontragent (yetkazib beruvchi) yoki xodim foydasiga qaror qabul qilish uchun bosim o'tkazilganmi? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q | | |
| | | *Javoblar* | 120 nafar (2,8%) | 4 113 nafar (97,2%) | | |
| 7 | Siz bankda manfaatlar to'qnashuviga oid vaziyatlarga duch kelganmisiz? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q | Ha bo'lsa batafsil ma'lumot bering | |
| | | *Javoblar* | 185 nafar (4,4%) | 4 042 nafar (95,5%) | 6 nafar (0,1%) | |
| 8 | Sizningcha bankining qaysi jarayonlarida korrupsion holatlarning ehtimoli yuqori?* | *Javob variantlari* | Bank xizmatlari ko'rsatilishida | Xarid jarayonida | Ishga qabul jarayonida | Boshqa |
| | | *Javoblar* | 604 nafar (14,3%) | 325 nafar (7,7%) | 463 nafar (10,9%) | 3 106 nafar (73,3%) |
| 9 | Bankda korrupsiya holatlari sodir bo'lishiga nima sabab deb o'ylaysiz?* | *Javob variantlari* | Xodimlar korrupsiyaning salbiy oqibatlaridan yetarlicha xabardor emasligi | Aybdorlarga yetarlicha, keskin choralar ko'rilmasligi | Bank xizmatlarini ko'rsatishda inson omilining ko'pligi | |
| | | *Javoblar* | 1 774 nafar (41,9%) | 1 361 nafar (32,1%) | 1 430 nafar (33,9%) | |
| 10 | Siz bankining maxsus aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy holat(lar) yuzasidan xabar berish mumkinligi to'g'risida ma'lumotga egamisiz? | *Javob variantlari* | Ha | Yo'q | Yetarli darajada emas | |
| | | *Javoblar* | 2 991 nafar (70,7%) | 527 nafar (12,4%) | 715 nafar (16,9%) | |

| № | So'rovnoma savollari | Javob varianiari va javoblar | So'rovnoma javoblari soni va jamiga nisbatan ulushi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 11 | Korrupsiyaviy holat(lar) hamda manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan qaysi aloqa kanallari orqali xabar yuborish Sizga qulay?* | *Javob variantlari* | Maxsus mobil ilova orqali | Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining elektron pochtasi orqali | Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining Ishonch telefoni orqali | Bankning rasmiy sayti orqali |
| | | *Javoblar* | 1 414 nafar (33,4%) | 659 nafar (15,6%) | 1 562 nafar (36,9%) | 1 418 nafar (33,5%) |
| 12 | Korrupsiyani oldini olish uchun bankda nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?* | *Javob variantlari* | Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlarining vakolatlarini kuchaytirish kerak | Bank xodimlariga tushuntirish ishlarini olib borish kerak | Aybdorlarga keskin choralar ko'rish kerak | |
| | | *Javoblar* | 1 086 nafar (25,7%) | 2 216 nafar (52,3%) | 1 578 nafar (37,3%) | |

** 2 va undan ortiq javob tanlash mumkin.*

*So'rovnoma **2026-yil 16-26-aprel** kunlari bankining rasmiy sayti orqali google.forms onlayn dasturida o'tkazildi.*